SAMARQAND VILOYATI JOMBOY TUMANI HOKIMINING QARORI

Jomboy t, mustaqillik maydoni, 1-uy.

2022 - yil 3 - noyabr 436-7-94-Q/22 Jomboy tumani hokimligi

Viloyat hokimining 2022-yil 11-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 23-sentabrdagi “Iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko‘p kvartirali uy-joy fondini 2022/2023-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlashni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 522-sonli qarori haqida”gi 393-7-0-Q/22 sonli qarori ijrosini taminlash to‘g‘risida

Tumanda iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko‘p kvartirali uy-joy fondini 2022/2023-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Viloyat hokimining 2022-yil 11-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 23-sentabrdagi “Iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko‘p kvartirali uy-joy fondini 2022/2023-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlashni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 522-sonli qarori haqida”gi 393-7-0-Q/22 sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosari (F.Majidov, Sh.Raximov, J.Rajabov, X.Raximova) tuman mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (O‘.Mamatov), tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish (B.Tojibayev) “HududgazJomboy” gaz ta’minoti filiali (S.Mallayev), “Ko‘mir ta’minoti” MChJ tuman filiali (O.Xolmurodov) tegishli tashkilotlar bilan kuz-qish mavsumiga tayorgarlik ishlarini qo‘yidagilardan boshlansin;

tuman aholisini ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash uchun barcha hududlarda maqbul narxlarda oziq-ovqat yarmarkalarini tashkil etish;

“Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” va “Temir daftar”ga kiritilgan oilalarga ko‘mir va suyultirilgan gazni o‘z vaqtida yetkazib berish hamda bolalarni issiq kiyim-kechak bilan ta’minlash;

olis va borish qiyin bo‘lgan hududlarda hamda tabiiy ofatlar oqibatida yo‘llar talafot ko‘rishi ehtimoli mavjud qishloqlarga ko‘mir va suyultirilgan gazni yetkazib berish hamda kamida 15-20 kunga yetadigan asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari zahirasini yaratish.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (F.Majidov), tuman Moliya bo‘limi (G‘.Burxonov), Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi (M.Abduraximov), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 iyundagi “Ko‘p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PQ–5152-son qarorida ko‘zda tutilgan ko‘p kvartirali uylar atrofidagi umumfoydalanishdagi hojatxonalarni yaxshilash tadbirlarini tegishli mahalliy budjetlarining qo‘shimcha manbalari mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishini ta’minlasin.

4. Quyidagilar:

tumanda iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko‘p kvartirali uy-joy fondini 2022/2023 yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar 1-ilovaga muvofiq;

iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko‘p kvartirali turar joy fondini kuz-qish mavsumida barqaror ishlashga tayyorlashni muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman komissiyasi tarkibi (keyingi o‘rinlarda –tuman komissiyasi) 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

5. Qo‘yidagilar tuman komissiyasining asasiy vazifalari yetib belgilansin;

bir hafta muddatda tumanda tegishli tashkilotlar rahbarlaridan iborat ishchi guruhlarini tashkil yetib, ular tomonidan amalga oshiriladigan ishlarni mahallalar kesimida belgilab beradi;

tumanda aholining murojaatlarini qabul qilish va ularning tezkor ko‘rib chiqilishini ta’minlash bo‘yicha tunu-kun ishlaydigan aloqa tizimini ishga tushiradi;

mahallalarda xalq bilan muloqot tarzida o‘tkaziladigan uchrashuvlarda mazkur qaror bilan kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish va uni talofatsiz o‘tkazish bo‘yicha belgilab berilgan parametrlarining bajarilishi yuzasidan aholiga hisobot berib borish tizimini yo‘lga qo‘yadi.

joylarda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish va uni betalofat o‘tkazish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar yuzasidan viloyat shtabiga ma’lumot taqdim qiladi.

hududiy ishchi guruhlar a’zolariga qishloq aholi punktlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko‘p kvartirali uy-joy fondini kuz-qish davrida barqaror ishlashga

tayyorlash bo‘yicha belgilangan parametrlar va chora-tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash yuzasidan shaxsiy mas’uliyat yuklansin.

6. Tuman hokimining o‘rinbosari (F.Majidov, Sh.Raximov, J.Rajabov), tuman moliya bo‘limi (G‘.Burxonov), tuman Xalq ta’limi bo‘limi (Z.Yusupova), tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi v.v.b (Sh.Mardieva), tuman tibbiyot birlashmasi (T.Xoliqova)lar ijtimoiy soha obyektlarini kuz-qish mavsumi uchun ko‘mir mahsulotlarini talabdan kelib chiqib zarur mablag‘lar ajratish yuzasidan asoslangan hisob-kitoblarni Moliya boshqarmasiga taqdim etsin.

7. Tuman hokimining o‘rinbosari (Sh.Raximov), Elektr ta’minoti korxonasi (I.Ximmatov), “Jomboytumangaz” tuman filiali (S.Mallaev), tuman iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi (B.Tojibayev) tegishli korxona va tashkilotlar bilan birgalikda:

elektr va tabiiy gaz qurilmalarini ta’mirlash, ularning barqaror ishlashini ta’minlash, issiqlik va elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi tashkilotlarga yoqilg‘i resurslarini uzluksiz yetkazib berilishini;

aholiga ijtimoiy soha obyektlariga, boshqa toifadagi iste’molchilarga zarur miqdorlarda energetika resurslarini yetkazib berish bo‘yicha muntazam ravishda “mahallabay” tizimida o‘rganishlar olib borib ajratilgan resurslarni yetkazib berilishini ta’minlasin.

8. Tuman hokiminig o‘rinbosarlari (F.Majidov, Sh.Raximov), tuman moliya bo‘limi (G‘.Burxonov);

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 23-sentabrdagi 522-sonli qarori 5-ilovasida belgilangan tadbirlarning loyiha-qidiruv ishlari xarajatlarini mahaliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan 2022-yil 1-noyabrga qadar moliyalashtirsin;

kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish va uni betalofat o‘tkazish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar yuzasidan viloyat komissiyasiga haftalik ma’lumot taqdim yetib borsin;

kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish va uni betalofat o‘tkazish yuzasidan xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga hisobot berib borsin hamda mahalliy telvidenielarda har hafta “Ochiq muloqot” hamda brifinglar o‘tkazib borilishini ta’minlasin.

9. Tuman hokimining o‘rinbosari (Sh.Raximov), tegishli tashkilot korxonalar bilan birgalikda iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko‘p kvartirali uy-

joy fondini 2022/2023-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash bo‘yicha parametrlar va chora-tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash yuzasidan javobgarlik yuklansin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosarlari F.Majidov va Sh.Raximov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Q.Sobirov**

Jomboy tuman hokimining
2022 yil 3 noyabrdagi
436-7-94-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tuman iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlarini va ko‘p kvartirali turar-joy fondini 2022/2023-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash bo‘yicha

KOMPLEKS CHORA-TADBIRLAR

T/R	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas’ullar
1	2022/2023-yillar kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik bo‘yicha hududlarni “qizil” “sariq” va yashil hududlarga ajratish. Bunda, aholi punktlarini “qizil” hududga kiritishda elektr energiyasi va tabbiy gaz ta’minotidagi muommolar mavjud uy-joy mulkdorlari shirkatlarining moddiy-texnika bazasi moliyaviy holati og‘ir xalq qabulxonalariga kommunal xizmatlar yuzasidan murojaatlar tushgan shuningdek olis va borish qiyin bo‘lgan hududlarni nazarda tutish.	Bir hafta muddatda	Tuman hokimining o‘rinbosari (Sh.Rahimov), tuman iqtisodiy tarqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi (B.Tajibayev), tuman uy-joy kommunal bo‘limi (M.Abduraximov) “Hududgaz Jomboy” gaz ta’minoti filiali (S.Mallayev), tuman elektr ta’minoti korxonasi (I.Himmatov)
2	Aholi yashash punktlarida: Ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, shu jumladan kommunal xizmat ko‘rsatish tashkilotlarihamda ijtimoiy soha obyektlarining issiqlik ta’minoti korxonalari muxandislik kommunikatsiya obyektlari va jihozlarini ta’mirlash; Iste’molchilarga suyultirilgan gazni (ovqat pishirish uchun) barqaror yetkazib berish shuningdek chekka hududlarda yashovchi aholini ichimlik suvining muqobil manbalari (shu jumladan tashib keltiradigan suv) bilan ta’minlash bo ‘yicha mas’ul ijrochilar va bajarish muddatlarini aniq belgilagan holda chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish.	2022-yil oktabr	Tuman hokimining o‘rinbosari (Sh.Rahimov), tuman iqtisodiy tarqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi (B.Tajibayev), tuman uy-joy kommunal bo‘limi (M.Abduraximov), “Jomboytumangaz” gaz ta’minoti filiali (S.Mallayev), tuman elektr ta’minoti korxonasi (I.Himmatov)

3.	Iqtisodiyot tarmoqlarini 2022/2023-yillar kuz-qish mavsumiga tayyorlash bilan bog‘liq bo‘lgan gaz kondensati, suyultirilgan gaz, ko‘mir, texnik tuz va boshqa yuklarni yetkazib berish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish.	2022-yil oktabr va mavsum davomida	Tuman hokimining o‘rinbosari (Sh.Rahimov), “Ko‘mir ta’minot” MChJ Jomboy tuman ombori (O.Qurbonov), “Hududgaz Jomboy” gaz ta’minoti filiali (S.Mallayev)
4.	Maishiy gazdan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan favqulodda hodisalarning oldini olish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.	2022-yil oktabr va mavsum davomida	Tuman hokimining o‘rinbosari (Sh.Rahimov), tuman favqulodda vaziyatlar bo‘limi (Sh.Xolmatov), “Hududgaz Jomboy” gaz ta’minoti filiali (S.Mallayev)
5.	Ishlab chiqarish va yetkazib berish balansini hisobga olgan holda 2022-yil pktabr oyidan 2023-yil aprel oyiga qadar bo‘lgan davr mobaynida ulgurji iste’molchilar va aholiga tabiiy gaz yetkazib berish bo‘yicha kelishilgan oylik jadvalni ishlab chiqish va amalga oshirish.	2022-yil oktabr	Tuman hokimining o‘rinbosari (Sh.Rahimov)/ tuman iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi (B.Tajibayev), “Hududgaz Jomboy” gaz ta’minoti filiali (S.Mallayev)
II.Yoqilg‘i-energetika majmuasini barqaror ishlashga tayyorlash bo‘yicha chora-tadbirlar			
6	Kuz-qish davrida qozonxonalarni barqaror ishlashini ta’minlash maqsadida soha tashkilotlari tomonidan zarur suyuq va qattiq yosilg‘i zaxirasini yaratish.	2022-yil 1-noyabr	Tuman hokimining o‘rinbosari (Sh.Rahimov), Ko‘mir ta’minot” MChJ Jomboy tuman ombori (O.Qurbonov), “Hududgaz Jomboy” gaz ta’minoti filiali (S.Mallayev)

7	Aholi, ijtimoiy soha obyektlari va iqtisodiyot tarmoqlarining ko‘mirga bo‘lgan talabini to‘liq qanoatlantirish, jumladan: Aholi ehtiyojlari uchun 7,0 ming tonna; Ijtimoiy soha tashkilotlari uchun 1,856 ming tonna ko ‘mir mahsulotlari bilan ta’minlash. Bunda, import ko ‘mir mahsulotlari aholi talabidan kelib chiqqan holda yetkazib berish.	2022-yil 31- dekabr	Tuman hokimining o‘rinbosari (Sh.Rahimov), tuman iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi (B.Tajibayev), “Ko‘mir ta’minot” MChJ Jomboy tuman ombori (O.Qurbonov)
8.	Iste’molchilarga tasdiqlangan oylik jadvalga asosan kuz-qish mavsumida 2005 tonna, jumladan joriy yil oktabr-dekabr oylarida 1203 tonna suyultirilgan gazni yetkazib berish.	2023-yil mavsum davomida	Tuman hokimining o‘rinbosari (Sh.Rahimov), “Hududgaz Jomboy” gaz ta’minoti filiali (S.Mallayev)
9.	Olis va borish qiyin bo‘lgan hududlarda hamda sel kelishi oqibatida yo‘llar talofat ko‘rishi ehtimoli mavjud qishloqlarda kuz-qish mavsumi uchun zarur miqdorda yoqilg‘i-energetika resurslari zaxirasini yaratish.	2023-yil 1-yanvar	Tuman hokimining o‘rinbosari (Sh.Rahimov), “Hududgaz Jomboy” gaz ta’minoti filiali (S.Mallayev), “Ko‘mir ta’minot” MChJ Jomboy tuman ombori (O.Qurbonov)
III.Ko‘p kvartirali uy-joy fondini tayyorlash bo‘yicha chora-tadbirlar			
10.	Tumandagi ko‘p kvartirali uy-joy fondinini ta’mirlash ishlari bo‘yicha haqiqiy ehtiyojni hisobga olgan holda joriy yilda moliyaviy ahvoli barqaror bo‘lgan ko‘p kvartirali uylarni boshqaruvchi tashkilotlar va uy-joy mulkdorlari shirkatlarini qo‘llab quvvatlash uchun tegishli manbalardan talab etiladigan mablag‘larning aniq miqdorlarini belgilash.	Zaruratga ko‘ra	Tuman hokimining o‘rinbosari (Sh.Rahimov), tuman uy-joy kommunal xizmat ko‘ratish bo‘limi (M.Abduraximov), tuman moliya bo‘limi (G‘.Burxonov), tuman iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi (B.Tajibayev)
11.	Respublika budjeti va mahalliy budjet, bank kreditlari, uy-joy mulkdorlari shirkatlari mablag‘lari va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbaalar hisobidan ko‘p kvartirali uylarda ta’mirlash ishlarini sifatli amalga oshirish, ko‘p kvartirali uylarni fasad qismini ta’mirlash ishlarini ta’mirlash.	2022-yil oktabr	Tuman hokimining o‘rinbosari (Sh.Rahimov), tuman uy-joy kommunal xizmat ko‘ratish bo‘limi (M.Abduraximov)

12.	Ko‘p kvartirali uylar bino va inshootlarning yong‘inga qarshi xavfsizlik texnik me’yorlariga mosligi holatini tekshirib, ko‘p xonadonli uylardagi dudburonlar va shamollatish tizimlarini ya’mirlash, izolyatsiya qilish va tozlash ishlarini amalga oshirish.	2022-yil oktabr	Tuman hokimining o‘rinbosari (Sh.Rahimov), tuman uy-joy kommunal xizmat ko‘ratish bo‘limi (M.Abduraximov), “Hududgaz Jomboy” gaz ta’minoti filiali (S.Mallayev), tuman favquloda vaziyatlar bo‘limi (Sh.Xolmatov)
13.	Markazlashtirilgan issiqlik ta’minotiga tizimiga ulanmagan ko‘p kvartirali uylarning xatlovdan o‘tkazish mavsumida ushbu uylarni isitish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.	2022-yil oktabr	Tuman hokimining o‘rinbosari (Sh.Rahimov), tuman uy-joy kommunal xizmat ko‘ratish bo‘limi (M.Abduraximov)
14.	Markazlashtirilgan issiqlik ta’minotiga ulangan va ichki tizimlari nosoz bo‘lgan ko‘p kvartirali uylarning nosoz ichki tizimlarini tiklash bo‘yicha sektorlar manzilli dasturni tasdiqlash va amalga oshirish.	2022-yil oktabr	Tuman hokimining o‘rinbosari (Sh.Rahimov), tuman favquloda vaziyatlar bo‘limi (Sh.Xolmatov), tuman elektr ta’minoti korxonasi (I.Himmatov), tuman uy-joy kommunal xizmat ko‘ratish bo‘limi (M.Abduraximov)
15.	Ko‘p kvartirali uylarda elektr energiyasidan xavfsiz foydalanish qoidalariga rioya etilishi holatini o‘rganish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko‘rish.	2022-yil oktabr	Tuman hokimining o‘rinbosari (Sh.Rahimov), tuman favquloda vaziyatlar bo‘limi (Sh.Xolmatov), tuman elektr ta’minoti korxonasi (I.Himmatov), tuman uy-joy kommunal xizmat ko‘ratish bo‘limi (M.Abduraximov)
IV. Issiqlik va ichimlik suv ta’minoti obyektlarini tayyorlash bo‘yicha chora-tadbirlar			
16.	Yong‘inga qarshi jihozlar va gidrantlarni yaroqlik va me’yorlariga muvofiqlik yuzasidan tekshirivdan o‘tkazish va ularning kuz-qish davrida ishlashga tayyorligi to‘g‘risida dalolatnomalar rasmiylashtirish. Bunda sertifikatlangan qozonlarni qo‘llashga alohida e’tibor berish.	2022-yil oktabr	Tuman hokimining o‘rinbosari (Sh.Rahimov), tuman favquloda vaziyatlar bo‘limi (Sh.Xolmatov), tuman uy-joy kommunal xizmat ko‘ratish bo‘limi (M.Abduraximov)
17.	Ichimlik suv tarmoqlari va nosoz uskunalarni mavsumga tayyorlash Ichimlik suv tarmoqlaridagi nosoz uskunalarning mukammal tayyorlash. Ichimlik suv tarmoqlari va nosoz uskunalrni joriy ta’mirlash ishlarini amalga oshirish.	2022-yil oktabr	Tuman hokimining o‘rinbosari (Sh.Rahimov), tuman “Suvoqova” ishlab chiqarish korxonasi (R.Raxmatov)
V.Ijtimoiy soha obyektlarini barqaror ishlashga tayyorlash bo‘yicha chora-tadbirlar			

18.	Ijtimoiy soha obyektlarini kuz-qish mavsumiga tayyorlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarini amalga oshirish. Tumandagi umumta’lim maktablari hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlari shifoxona va poliklinika va sport obyektlarini joriy ta’mirlash, muassasalarda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik yuzasidan zarur choralarni ko‘rish.	2022-yil oktabr	Tuman hokimining o‘rinbosari (Sh.Rahimov), tuman xalq ta’limi bo‘limi (Z.Yusupova), tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi (Sh.Mardiyeva), tuman tibbiyot birlashmasi (T.Xoliqova)
19	Budjet tashkilotlarini ko‘mirda ishlaydigan qozonxona va isitish tizimlari kuz-qish mavsumiga tayyorgarligini o‘rganib ijtimoiy soha obyektlariga qo‘shimcha talab qilinadigan ko‘mir xarajatlarini aniqlash va qoplab berish choralarini ko‘rish.	2022-yil oktabr	Tuman hokimining o‘rinbosari (Sh.Rahimov), tuman xalq ta’limi bo‘limi (Z.Yusupova), tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi (Sh.Mardiyeva), tuman tibbiyot birlashmasi (T.Xoliqova), tuman madaniyat bo‘limi (F.Zubaydullyev)
VI.2022/2023 yillar qish mavsumi uchun asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarni g‘amlash bo‘yicha chora-tadbirlar			
20	Moliyaviy ahvoli barqaror bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarni qo‘llab quvvatlash maqsadida ularga bank kreditlari o‘z vaqtida ajratilishi va ulsrning maqsadli ishlatilishini ta’minlash.	Doimiy ravishda	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosarlari (F.Majidov, H.Rahimova)
21	Muhtoj oilalarga kuz-qish mavsumi uchun oziq-ovqat va dori vositalari zaxiralaro bilan ta’minlash.	2022-yil oktabr	Tuman hokimining o‘rinbosari (F.Majidov) tuman mahalla va nuroniylarni qullab-quvvatlash bo‘limi (U.Mamatov), tuman tibbiyot birlashmasmasi (T.Xoliqova), tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi (B.Tajibayev)
VII.Chora-tadbirlar bajarilishini nazorat qilish			
22.	Hududiy komissiya tomonidan 2022/2023-yillar kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning holati yuzasidan taxliliy ma’lumotlarni Viloyat shtabiga taqdim etib borish	2022-yil oktabr	Tuman hokimining o‘rinbosari (Sh.Rahimov) Uy-joy kommunal xizmat ko‘ratish bo‘limi (M.Abduraximov)

23	Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarning holati va natijalarini jumladan mavsumga tayyorgarlik ko‘rish va mavsum davomida kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan tashkilotlar va ularning mansabdor shahslari faoliyatini tuman hokimligi Axborot xizmati, “Jomboy Tongi” gazetasi, tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilib borsin.	Doimiy ravishda	Tuman hokimining o‘rinbosari (Sh.Rahimov)Tuman hokimligi Axborot xizmati (O.Odilov), “Jomboy Tongi” gazetasi (I.Po‘latov)

Jomboy tuman hokimining
2022 yil 3 noyabrdagi
436-7-94-Q/22-son qaroriga
2-ilova

Iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlarini va ko‘p kvartirali turar-joy fondini 2022/2023-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlashni muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman komissiyasi

TARKIBI

T/r	F.I.Sh.	Lavozimi
1.	Sh.Rahimov	Tuman hokimining o‘rinbosari ***komissiya raisi***
2.	M.Abduraximov	Tuman uy-joy kommunal xizmat ko ‘rsatish bo‘limi boshlig‘i ***komissiya kotibi***
3.	Sh.Xolmatov	Tuman favqulodda vaziyatlar bo‘limi boshlig‘i v.v.b
4.	G‘Burxonov	Tuman moliya bo‘limi boshlig‘i
5.	Z.Turdiyev	Tuman qurilish bo‘limi boshlig‘i
6.	T.Holiqova	Tuman tibbiyot birlashmasi boshlig‘i
7.	Z.Yusupova	Tuman xalq ta’limi bo‘limi boshlig‘i
8.	Sh.Mardiyeva	Tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi boshlig‘i
9.	F.Zubaydullayev	Tuman madaniyat bo ‘limi boshlig‘i
10.	B.Tojibayev	Tuman iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi boshlig‘i
11.	S.Mallayev	“Hududgaz Jomboy” filiali boshlig‘i
12.	I.Himmatov	Jomboy elektr tarmoqlari korxonasi boshlig‘i
13.	R.Raxmatov	Tuman suvoqova ishlab chiqarish korxonasi
14.	O.Qurbonov	“Ko‘mir ta’minot” MChJ Jomboy ombori mudiri

Izoh: Komissiya tarkibidagi mas’ullar hodimlar boshqa lavozimiga o‘tkazilganda ularning o‘rniga tayinlangan mansabdor shahslar komissiya tarkibiga kiritiladi.